

NAFIS ADABIYOT MUALLIFI

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

pardaboyevaadiba@gmail.com

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Anor” turkumiga kiruvchi “Adabiyot muallimi” hikoyasining tahlili va adabiyot o'qituvchisining o'ziga xos jihatlari haqida fikrlar yuritilgan. Bu hikoya katta mahorat bilan yozilgan, o'tkir satira, ijtimoiy tahlil va obrazlar orqali o'zbek jamiyatining bir davrda shakllangan muayyan qatlamini — “ma'rifatli, ziyoli” deb atalgan, lekin ichki bo'shliq va po'stlog'i bilan yashayotgan kishilarni fosh etadi.

Kalit so'zlar: Baqoyev, muallim, adabiyot, Hamida, daftar, Mukarram, samovar, maymun, Rahima, Chexov, Marks Dobrolyubov.

АВТОР ИЗЯЩНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Пардабоева Адипа Шухрат кизи

Студент по направлению Узбекский язык и литература Нукусского государственного педагогического института.

pardaboyevaadiba@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется рассказ Абдуллы Каххара «Учитель литературы» из серии «Гранат» и комментируются особенности работы учителя литературы. Этот рассказ, написанный с большим мастерством, через острую сатиру, социальный анализ и косые наклоны, обнажает сформировавшийся в свое время определенный слой узбекского общества — так называемую «просвещенную, интеллигенцию», но живущую с внутренней пустотой и уязвимостью.

Ключевые слова: Бакаев, учитель, литература, Хамида, тетрадь, Мукаррам, самовар, обезьянка, Рахима, Чехов, Маркс Добролюбов.

AUTHOR OF ELEGANT LITERATURE

Pardaboyeva Adiba Shuxrat qizi

pardaboyevaadiba@gmail.com

Student majoring in Uzbek language and literature at Nukus State Pedagogical Institute.

Abstract: This article analyzes the story of Abdulla Qahhar “The Teacher of Literature” from the series “Pomegranate” and comments on the peculiarities of a literature teacher. This story, written with great skill, through sharp satire, social analysis and obliques, exposes a certain stratum of the Uzbek society formed at one time - the so-called “enlightened, intelligentsia”, but living with inner emptiness and vulnerability.

Keywords: Bakayev, teacher, literature, Hamida, notebook, Mukarram, samovar, monkey, Rahima, Chekhov, Marks Dobrolyubov.

KIRISH

“Adabiyot muallimi” deganda ko‘z oldimizga o‘z kasbining fidoiy va faol mutaxassisi bo‘lgan inson keladi. Ammo bizning hikoya qaxramonimiz bu ta‘riflardan biroz farq qiladi. Chunki, o‘zini “nafis adabiyot muallifi” deb atovchi Boqijon Baqoyev soxta ziyolilikning asl egalaridan biri desak ham bo‘ladi. Jamiyatimizda bu kabi o‘z kasbiga fidoiy bo‘lmagan, maqtanib, obro‘ orttiramam deguvchi insonlar kam emas. Boqijon Baqoyev og‘ilga kirgan paytda sigir va uning qulog‘idagi kanaga achchiqlanishi — bu mayda hayotiy muammolarga haddan tashqari berilib ketgan, hayotiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish u yoqda tursin, ularni oddiy tushunishga ham o‘z oqib ko‘rsatadigan odam obrazidir. Hattoki, sigirini qayta-qayta “hayvon, sigir emas bu, hayvon” deb o‘shqirishi ham uning naqadar oddiy narsalarga ham jiddiy qarab yuboruvchi insonlar sirasiga kirishini ko‘rsatib beradi.

Hattoki, o‘zini “nafis adabiyot muallimi” deb ataguvchi qahramonimizning “bu sigirni sotib, puliga cho‘chqa olish kerak” degan gaplari ham adabiyot o‘qituvchisiga xos bo‘lmagan shaklda berilgan. Sigirga tushgan kanalarni so‘kib o‘tirar ekan, qaynisinglisi Hamida kelib qoldi. Hamida Baqoyevning ayoli Mukarramning singlisi. Hamida o‘n olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq va bilimdon qiz. Hamida - fikrga chanqoq, intiluvchan, bilim olishni istovchi yosh avlod vakili sifatida tasvirlanadi. Chexovning “Uyqu istagi” asariga asoslangan adabiy sud jarayonini tashkil qilgan, bunda xizmatkor qizni oqlash uchun o‘z fikrini ilgari suradi. Bu orqali u adolat, tanqidiy fikrlash, ayollarga nisbatan ekspluatatsiyani tushunish kabi yuksak tushunchalarni izlayotgani ko‘rsatiladi.

Hamida pochchasining yoniga savollariga javob olish uchun keladi. Ammo pochchasi o‘zini yaxshi ko‘rsatishga urinib, harxil bemantiq gaplarni gapirib o‘tiradi. Hamidaning savoliga javob o‘rniga u Chexovni boshqa davr yozuvchilari bilan

solishtiradi, lekin aniq tushuntirish bermaydi. Natijada, Hamida hech qanday foydali fikr ololmaydi.

U odamlarni faylasufona g‘oyalari bilan hayratlantirishga urinadi. Lekin bu g‘oyalar har doim noaniq, mavhum, asossiz. “Stending”, “Demping”, “Shelling”, “Detirding” degan nomlar esa haqiqiy adabiy yoki ilmiy yondashuvdan yiroq, chalg‘ituvchi, diqqatni boshqaga buruvchi vositalardir.

Hamida obrazi orqali yozuvchi **avlodlar o‘rtasidagi tafovutni** ko‘rsatadi. Hamida yangilikni istasa-da, mavjud “soxta ziyolilar” avlodidan hech narsa ololmaydi. Baqoyev har doim o‘zini zo‘rman deb hisoblardi. Hattoki, Hamidaga: “Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Deydi, Hakimov deganda, ahmoq odam! O‘z ustida ishlaymaydi! Savol alomati hammavaqt “mi” dan keyin qo‘yiladi desam, kuladi”. Boqijon gapdan-gapga o‘tadi, biron fikrni oxirigacha yetkazmaydi. Bu esa **fikrning yoyilib ketishi, so‘zbozlik, substansiyasiz ilmiylikni** tanqid qilish vositasidir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ushbu maqolada Baqoyev obrazi orqali jamiyatdagi aslida bilimi kam, har bir mavzuni lotincha so‘zlar, taniqli mualliflar, g‘alati faktlar bilan bezashga harakat qiladi, lekin bu borada **ichki mantiqiy chuqurlik, tushuncha** sezilmaydi. U shunchaki o‘zini bilimdon ko‘rsatishga urinadi. “Praktikum, minimum, maksimum – lotincha so‘zlar” degan gaplar bunga misol.

FOYDALANANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor, “Anor” hikoyasi 2012
2. [Abdulla Qahhor — hayoti va ijodi](#)
3. [Abdulla Qahhor hayoti va ijodi. A.Qahhor tarjimai holi](#)
4. “ANOR” (hikoyalar va qissalar), “Adabiyot muallimi” hikoyasi, 178b.